

«10» yanvar 2022 yil

Muzrabot tumani.

«Alpomish Servis invest» xususiy korxonasi, bundan buyon «Ta'minotchi» deb ataluvchi rahbari X. Panjiev Nizom asosida ish yurituvchi bir tomondan va **Muzrabot tuman SEO va JSB**, bundan buyon «Iste'molchi» deb ataluvchi rahbari v.b **Musayev Muso Abdurahmon o'g'li**, Nizom asosida ish yurituvchi ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida shartnoma tuziladi:

I.Shartnoma predmeti

1.1 «Ta'minotchi» gaz maxsulotini sotish majburiyatini va «Iste'molchi» esa sotib olingan gaz mahsuloti uchun o'z vaqtida shartnoma shartlari asosida to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini oldi.

II.Gaz maxsulotlari narxi va umumiy qiymati

№	Gaz mahsuloti nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	QQS summasi	QQSni hisobga olgan holda umumiy narxi
1	Siqilgan metan gaz	Metr, kub	1200	2500	391304	3000000
	JAMI :		1200	2500	391304	3000000

2.2 Shartnoma umumiy summasi 3000000 (uch million), QQS bilan so'mni tashkil qiladi.

2.3 «Ta'minotchi» gaz mahsulotlarning qiymati narxi oshganligi natijasida. O'zgarganda «Iste'molchi» ni oldindan xabardor qilib, tovar moddiy boylikning o'zgargan narxini asoslangan xolda sotadi.

2.4 «Iste'molchi» o'zgargan narxlar asosida qo'shimcha to'lovlarni byudjetda ko'rsatilgan limit doirasida amalga oshiradi.

2.5 «Ta'minotchi» gaz maxsulotlarini gaz quyish shaxobchasi orqali «Iste'molchi» ning gaz maxsulotlari bilan ishlaydigan jixozlangan avtomashinalari orqali amalga oshiradi.

2.6 «Iste'molchi» ning avtomashinasiga quyilgan gaz maxsuloti kuni, gaz maxsuloti etkazish sanasi xisoblanadi.

III.To'lov shartlari

3.1 «Iste'molchi» tovar moddiy boyliklar to'liq qiymatining oldindan 100 % miqdorida 10 bank kunida «Ta'minotchi» ning maxsus xisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi.

3.2 «Iste'molchi» tomonidan mazkur shartnomaning 3.1 bandi talablari bajirilmagan taqdirda, «Ta'minotchi» shartnomada ko'rsatilgan gaz mahsulotlarini bermaslikka hali bo'ladi.

IV.Tomonlarning xuquq va majburiyatlari

4.1 «Iste'molchi» ning majburiyatlari :

a) belgilangan tartibda avtomashinaga gaz mahsulotlarini quyish uchun maxsus ruxsatnoma olish;

b) gaz balonning geometrik xajmi va texnik xolati to'g'risida xaydovchining yo'l varaqasiga tegishli belgi qo'yish;

v) avtomashinalarning gaz balon uskunasi soz xolda saqlash;

g) gaz maxsulotlaridan foydalanish qoidalariga, texnik xavfsizligi masalalariga rioya qilish;

4.2 «Iste'molchi» gaz maxsulotlari bilan ishlaydigan, qayta jixozlangan avtomashinalaridan foydalanish davomida, texnika xavfsizligi va avtomashinaning texnik xolati uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

4.3 «Ta'minotchi» ning majburiyatlari:

a) avtomashinadagi mavjud o'lchov uskunalarining sozligi va bu moslamalardan to'g'ri foydalanilayotganligini nazorat qilish;

b) avtomashina xaydovchisini gaz maxsulotlaridan foydalanish uchun guvohnomasi borligini tekshirish;

g) "Iste'molchi" tomonidan shartnoma buzish va texnik xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik xolati aniqlanganida, maxsulot berishni to'xtatish;

4.4 Tomonlar maxsulot xajmining o'rtacha kunlik normasidan kelib chiqqan xolda oylik gaz miqdorini bir maromda uzatish va qabul qilish shart.

4.5 "Iste'molchi" sotib olgan masulotni iste'mol qilish davrida xar bir yuzaga kelgan o'zgarishlar xaqida chorak boshlanishdan oldin "Ta'minotchi" ga yozma ravishda xabar qilishi shart.

4.6 "Ta'minotchi" gaz quyish shaxobchalarida mavjud bo'lgan uskunalarni navbatdagi joriy ta'mirlash va umumiy ta'mirlash ishlaridan oldin "Iste'molchi" ga yozma ravishda xabar qilish shart.

4.7 "Ta'minotchi" "Iste'molchi" ning avtomashinasiga o'rnatilgan gaz uskunalari nosozligi tufayli mo'ljaldagi kilometr masofani yurmasa "Ta'minotchi" javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

V. Maxsulot (GAZ) xisoboti.

5.1 "Iste'molchi" ga berilgan maxsulot miqdori tarqatish varaqasiga asosan xisob kitob qilinadi.

5.2 "Iste'molchi" ga berilgan maxsulot miqdori davlat standarti tomonidan 13.01.1995 yilda (reg №418) tasdiqlangan "A.K.T.K.Sh" ga yuborilgan gaz xajmini o'lchash va uning xisob-kitob bo'yicha qy'llanma (RD.Uz51903494) asosida "O'zbekneftgaz" milliy kompaniyasi tomonidan 25.11.1995 yilda tasdiqlangan "A.K.T.K.Sh" da iste'molchilarga tarqatilgan gaz xajmi aniqlash jadvaliga muvofiq "Ta'minotchi" ning o'lchov asboblari orqali aniqlanadi.

VI. Tomonlarning mulkiy-xuquqiy javobgarligi.

6.1 "Iste'molchi" shartnomada ko'rsatilgan xajmdagi gaz mahsulotidan ko'proq miqdorda olmoqchi bo'lgan taqdirda, tomonlar o'rtasida qo'shimcha shartnoma tuzildi.

6.2 "Ta'minotchi" shartnomada ko'rsatilgan gaz maxsuloti bilan "Iste'molchi" ni o'z vaqtida ta'minlay olmasa, quyidagi xollarda javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

a) elektr tarmoqlarida sodir bo'lgan avariya xollarida,

b) elektr tarmoqlari ta'mirlash uchun to'xtatilganda,

v) mol etkazib beruvchi va pudratchilar aybi bilan gaz maxsuloti o'z vaqtida kelmay qolgan vaqtda,

6.3 "Iste'molchi" shartnomada ko'rsatilgan xajmdagi gaz mahsuloti o'z vaqtida yoki to'liq to'lovni amalga oshirmagan taqdirda, xar bir kechiktirilgan kun uchun to'lov summasining 0.5 % miqdorida penya to'laydi, lekin penya miqdori shartnoma umumiy summasining 50 % idan oshmasligi kerak.

6.4 Gaz maxsulotlarini etkazib berishni kechiktirganligi uchun "Ta'minotchi" kechiktirilgan xar bir kun uchun 0.5 % miqdorida penya to'laydi, lekin shartnoma umumiy summasining 50 % idan oshmasligi kerak.

6.5 Shartnomada ko'rsatilib o'tilgan majburiyatlarining bajarilishi bo'yicha tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunlari bo'yicha javobgardir.

VII. Nizomlarni xal etish tartibi

7.1 Mazkur shartnoma bo'yicha tomonlar shartlarni bajarmagan taqdirda, javobgar tomon keltirilgan moddiy va ma'naviy zararlarni qoplaydi.

7.2 Tomonlar o'rtasida shartnomani tuzishda, bajarilishida o'zgartirish va bekor qilishda etkazilgan zararlarni qoplashda yuzaga keladigan nizolar ogoxlantirish va da'vo xatlari tartibida, agarda murosaga kelinmaganda viloyat Iqtisodiy sudi orqali xal qilinadi.

VIII. Qo'shimchalar.

8.1 Ikki tomonning o'zaro yozma kelishuviga asosan mazkur shartnomaga kiritiladigan o'zgarish va qo'shimchalar qonuniy kuchiga ega bo'ladi. O'zgarish va qo'shimcha shartnomaga ilova qilishi mumkin. Qilingan ilova ikki tomonning muxri va imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi shart.

8.2 Bir tomonlama shartnoma bekor qilishga to'lov shartlari bajarilmaganligi va gaz mahsulotlarini etkazib berish tartiblari buzilganligi asos bo'ladi.

IX. Fors-major

9.1 Agar shartnoma tuzilgandan so'ng ikki tomon o'z majburiyatlarini qayri tabiiy xolatlar, suv, toshqini, yong'in, er qimirlash, va tabiiy ofatlar sababli bajarilmasa, xech qaysi tomon to'la yoki qisman bajarilmagan majburiyatlar uchun javobgar xisoblanmaydilar.

X.Shartnomaning amal qilish muddati.

10.1 Mazkur shartnoma g'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatidan o'tgan kundan boshlab kuchga kiradi va 31 dekabr 2022 yilgacha amalda bo'ladi.

10.2 Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib ikki tomon uchun xam teng kuchga ega bo'lib, bank xisob-kitoblarini amalga oshirishga asos bo'ladi

XI.Tomonlarning yuridik manzili.

Nomi: "Alpomish Servis Invest" X/K

Nomi: Muzrabot tuman Sanitariya-epidemiolgiya
osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi

Manzil: Muzrabot tuman «Alpomish»
maxallasi

Manzil: Muzrabot tuman « Shaffof »
maxallasi Adolat ko'chasi 1 uy

X/R 20208000804836627001

Sh.X.V : 100022860222077074110054001

INN : 301531668 OKONX 71150

INN : 200484460 OKONX 91531

Bank nomi : ATB Mikrokreditbank

Moliya Vazirligi G'aznachiligi

Muzrabot filiali MFO: 00335

Bank nomi : Toshkent shahar XKKM

KKS kodi 322060005179

INN : 201122919 MFO : 00014

Rahbar  X. Panjiev

X/R: 23402000300100001010

Rahbar v.b

M.Musayev

(imzo)

Xuquqshunos vizasi: Men _____ ning Xuquqshunos, ushbu dalolatnomaga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida" gi qonun va boshqa qonun xujjatlari talaolariga mos kelishligini aniqladim:

" " 2022 yil _____



YURIDIK AHAMIYATGA EGA XUJJATLARNING QONUN XUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyiha turi:

Shartnoma. №01

2. Loyiyaning nomi:

Muzrabot tuman «Alpomish Servis invest» xususiy korxonasi nomidan 2022 yil «20» yanvardagi №01–sonli shartnomasi. (**Siqilgan metan gaz**)
Shartnoma umumiy summasi 3000000 (uch million), QQS bilan so'mni tashkil qiladi.

ACOC: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi AB №3336-sonli Lisenziyasi Surxondaryo viloyati Muzrabot tuman hokimligi huzuridagi tadbirkorlik sub'ektlarini davlat xizmatlari ko'rsatish yagona darcha markazining №069-sonli guvohnomasi

3. Loyiha ishlab chiqaruvchisi va kiritilgan sana haqida ma'lumot :

Muzrabot tuman Sanitariy-epidemiologik va jamoat salomatlik bo'limi 2022 yil 20 -yanvar

Loyiha amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Muzrabod tuman yuridik
xizmat ko'rsatish markaz
bosh yuristkonsulti;**



F.Z.Nematov.

2022 yil «_20_» yanvar